

GEOGRAFIYA DARSLARIDA TADQIQOTGA UNDOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI.

Primova Mastura Norqobilovna

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya darslarida tadqiqotga undovchi innovatsion texnologiyalar, ularning qo‘llanishi va foydalanish tartibi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geografiya, interaktiv, chaynvord, pedagogic jarayon, mahorat, dars.

Geografiya darslarida milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari mavjud o‘quv rejalar, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma va metodik ishlanmalarni fanning so‘nggi yutuqlari, malakali pedagoglar tomonidan beriladigan tavsiyalar va ishlanmalar bilan o‘zgartirilib, boyitilib borishiga qaratilgan. Geografiya tabiiy fanlar ichida o‘zining keng qamrovligi, qiziqarliligi va ommabopligi bilan ajralib turadi. Geografiya o‘quv dasturi hamda geografiyadan qabul qilingan davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatib o‘tilgan talablarda o‘quvchilar o‘rganib o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirilgan. Mazkur fanda darslar davomida Yer yuzidagi yirik suvlik va quruqliklar — materiklar va okeanlar, ularning qismlari tabiati, ularda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan tanishtiradi. Geografiya fanini o‘qish orqali biz materiklar va okeanlarni o‘rgangan sayyohlarning faoliyati, turli materiklar iqlimi, suvlari, tabiat zonalari, okeanlar va ularning yirik qismlari — dengizlar, qo‘ltiq va bo‘g‘izlar tabiati bilan yaqindan tanishamiz. Ularni bilish, tahlil qila olish esa yurtimiz tabiatida kuzatilayotgan o‘zgarishlarni tushunishingizda, ularni tahlil qilish orqali kelajakda Yer yuzi va mamlakatimiz tabiatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ekologik va geoekologik muammolarning oldini olishga tayyorgarlik ko‘rishda sizga yo‘lboshchi bo‘ladi. Geografiya faniga o‘quvchining qiziqishini orttirish kelajakda yurtimizda yetuk mutaxassislarning yetishib chiqishi va ilm-fan, texnikaning yuksalishi uchun asos

bo‘la oladi. Chunki, bu ta’limda bahs-munozara yuritish, hamkorlikda ishlash va innovatsion ta’limning ahamiyati kattadir. Ular geografik bilimlarni chuqur o‘rganishga, o‘quvchilar qiziqishi va faolligini oshirish bilan birgalikda hayotiy va kasbiy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda geografiya fanini rivojlantirish, jamiyatdagi nufuzini oshirish, amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berish muhim hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda innovatsion ta’limdan o‘rinli foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Quyida shunday ta’lim namunalaridan keltirishni joiz topdim:

«Doira» usuli. Bunda ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. Usul quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o‘quvchi «Toshkent» desa, undan o‘ngda turgan o‘quvchi shaharning oxirgi harfi ya’ni «t» harfi bilan boshlanuvchi O‘zbekistondagi boshqa bir shaharni aytadi. Masalan: Toshkent – Termiz – Zarafshon yoki Katta Qo‘rg‘on – Namangan va hokazo. Qaysi o‘quvchi 5-10 sekund davomida shahar yoki joy nomini ayta olmay to‘xtalib qolsa u chiqqan sanaladi. Ushbu usul bitta o‘quvchi qolguncha davom etiriladi, eng oxirida qolgan o‘quvchi g‘alaba qilgan hisoblanadi.



Innovatsion usullardan foydalanib o‘tilgan dars esa o‘quvchini qiziqishlarini oshirish bilan birga mustaqil o‘qish malakalarini shakllantirish – kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishlariga zamin yaratadi.

“Hamkorlik” usuli. Bu usul orqali sinf o‘quvchilarini mavzu yuzasidan bilimlarini sinash, va xulosa qilish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarga mavzuga oid topshiriqlar berilib, yechimini birgalikda topishga undash lozim.

Masalan: **Geografik qobiq Yerning boshqa qobiqlaridan nimasi bilan farq qiladi?**

Geografik qobiqda Quyoshdan keladigan nur issiqlikka aylanadi. Bu qobiqda moddalarning hamma holati mavjud: suyuq, qattiq va gaz holatidagi moddalar bor. O‘simlik va hayvonot dunyosi vujudga kelgan. Odam ham shu qobiqda yashaydi, mehnat qiladi. O‘z mehnati bilan tabiatni o‘zgartiradi. Daryolarga to‘g‘onlar quradi, cho‘llarga suv chiqarib, obod vohalar bunyod etadi....



Xullas, xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchi, shuningdek, geografiya fani o'qituvchilari pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurboniyozov R., "Geografiya ta'lim metodikasi" – Urganch. 2002
2. Qurboniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. – T.: 2001-yil.
3. Ijtimoiy axborot ta'lim portoli: [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz) ; www. Geografiya.uz